

**ZARGARLIK TERMINLARINING SINTAKTIK USUL BILAN YASALISHI****Izzatoy Pardayeva***GulDU dotsenti***Feruza Mahmudboyeva***Magistrant***ARTICLE INFO.****Annotatsiya****Kalit so'zlar:**

O'zbek tilining zargarlik terminologiyasida ham birikma terminlar muhim o'rinn tutadi. Shunga ko'ra, quyida ushbu masalaga batafsilroq to'xtab o'tamiz.

---

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Zargarlik terminologiyasidagi birikma terminlarning hosil qilinishi va boshqa xususiyatlarini o'rganishdan oldin ularning tarkibi, tuzilishiga ko'ra turlarini ko'rib chiqish lozim deb hisoblaymiz.

Boshqa terminologik tizimlarda bo'lganidek, zargarlik buyumlariga aloqador tushunchalarni ifodalash uchun sodda va murakkab birikma terminlardan foydalaniladi.

Sodda birikma termin deyilganda ikki mustaqil ma'noli so'zlardan iborat birikmalar tushuniladi. O'zbek tilining barcha terminologik tizimlarida sodda birikma terminlar miqdorining ko'pligi bilan ajralib turadi. Masalan, zargarlik terminologiyasidagi *kamar bog'i, kalit bog'i sirg'asi, qashg'arboldoq sirg'asi* kabilalar shular jumlasidandir.

Tadqiqot ob'ektimiz **ot + ot** modeli asosida yasalgan bunday birikma terminlarning miqdori unchalik ko'p emas. Ularning soni nari borsa yigirmadan oshadi. Biroq **sifat + ot** tipida yasalgan sodda birikma terminlarining soni 300 dan oshib ketadi. Quyidagi keltiriladigan misollar ayni mana shundan dalolat beradi: *jiyDALI boldoq, ilonbosh bilaguzuk, katta go'yak, kichik zolun, kokilli sirg'a, ko'zlik palla, mayin egov, naycha tumor, ningird egov, nozik ish, no'lali sandon, oynakli zirak, osma zanjir, ottuyoq yompi, panjarali sochpopuk, puxta hal, rumcha uzuk va b.*

Uch va undan ortiq mustaqil leksik birliklardan iborat tizim murakkab birikma terminlar jumlasiga kiradi, ular ham zargarlik terminologiyasida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Bunday terminlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) **uch komponentli birikma terminlar:** *kumush qubba sochpopuk, etti kokilli sirg'a, ko'krakka taqiladigan bezak, chakkaga taqiladigan bezak, nozik sim to'qima, bosh kiyim to'g'nag'ichi, xalqai muhammadiy sirg'asi* va b.

b) **to‘rt komponentli birikma terminlar:** *manglayga taqiladigan osma bezak, erkaklar kamarining osma bezagi, ko‘ylak o‘miziga taqiladigan xaltacha, romb shaklidagi brinch to‘g‘nag‘ich, qo‘lga taqiladigan zeb-ziynat buyumlari, qanoti osma zargarlik buyumlari, to‘qima gul qo‘ydirilgan sirg‘a va b.*

v) **besh komponentli birikma terminlar:** *quloq orqasiga taqiladigan ayollar bezagi, ko‘ylak o‘miziga taqiladigan pardozlik xaltachasi, qashqari boldoq shaklidagi tilla sirg‘a va b.*

To‘g‘ri, murakkab birkma terminlar informatsiya almashinuv jarayonida o‘ziga xos qiyinchiliklarni tug‘diradi. Ayniqsa, 4-5 va undan ortiq komponentli birikma terminlar haqida shunday deyish mumkin. Terminologik prinsiplardan biri u yoki bu tushunchaning qisqa va ixcham terminlar bilan ifodalanishi lozimligini e’tiborga olsak, yuqorida keltirilgan murakkab komponentli terminlarni ixchamlashtirish yo‘lini qidirish kerak bo‘ladi. Masalan, *qashqari boldoq shaklidagi tilla sirg‘a birikmasini qashqari boldoqsimon tilla sirg‘a tarzida ixchamlashtirish mumkin*. YOki *romb shaklidagi brinch to‘g‘nag‘ich birikmasini birinch to‘g‘nag‘ich tarzida qo‘llash mumkin*.

Tekshirishlardan aniq bo‘lishicha, ona tilimizning zargarlik terminologichsida ham birikma terminlar o‘ziga xos munosib o‘rinni egallaydi. Masalan, tadqiqotga ob’ekt qilib olingen 1255 terminning yarmidan ko‘pini shu birikma terminlar tashkil etadi.

SHunisi ham borki, zargarlik terminologiyasida aniqlovchi komponentli birikma terminlar etakchi o‘rinni egallaydi. Aniqlovchi komponent esa ham asliy, ham nisbiy sifatlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Zargarlik terminologiyasida **asliy sifat + ot** hosil qilingan birikma terminlarning mikdori unchalik ko‘p emas. Ularning soni 25-30 ta atrofidadir.

Ana shunday birikma terminlarning aniqlovchi komponenti quyidagi asliy sifatlardan yasalgan: **mayda** (*mayda qubba, mayda bolg‘acha*), **achchiq** (*achchiq jom*), **kambar** (*kambar bilaguzuk*), **katta** (*katta gulsun, katta go‘yak, katta bolg‘a, katta ombir, katta qubba*), **nozik** (*nozik ish, nozik munchoq*), **pachoq** (*pachoq uzuk, pachoq sirg‘a, pachoq tumor*), **silliq** (*silliq qalam*), **to‘g‘ri** (*to‘g‘ri uzuk, to‘g‘ri dahandam*), **butun** (*butun tirnoq*), **yarim** (*yarim tirnoq*) va boshqalar.

Biroq o‘zbek tilining zargarlik terminologiyasida nisbiy sifatlar bilan yasalgan birikma terminlar alohida o‘rinni egallaydi. Bunday terminlar yasalish qoliplari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. SHunga ko‘ra, quyidagi ana shunday terminlarga batafsilroq to‘xtab o‘tamiz.

O‘zbek tilida nisbiy sifat yasovchi qo‘shimchalar juda ko‘p. SHunisi ham borki, ularning barchasi faol suratda sifat yasayvermaydi. Yana bir narsani e’tiborga olish lozim: nisbiy sifatlar bilan yasalgan birikma terminlarning u yoki bu modeli biror terminologiyada faol bo‘lsa, boshqasida passivdir.

1. **li** affiksi ishtirokida tuzilgan birikma terminlar. Ma’lumki, o‘zbek tilida **-li** affiksi «biror narsaga egalik, qarashlilik», «biror narsaning borligi, mavjudligi» kabi ma’nolarni ifodalovchi sifatlar yasaydi. *Aqilli, kuchli, bolali, o‘qimishli, sevimli* va boshqalar shular jumlasidandir. Zargarlik buyumlarining birikmali nomlarini yasashda bu affiks faol ekanligi bilan ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, uning ishtirokida quyidagi birikma terminlar hosil qilingan: *gardishli uzuk, kokilli zirak, panjarali uzuk, panjarali sochpopuk, qo‘ng‘iroqli sirg‘a, turunjli tillaqosh, jiydali boldoq, no‘lali sandon, yulduzli sirg‘a, ko‘zli uzuk, ko‘zli sirg‘a, so‘rg‘ichli (bolalar) bilaguzuk* va boshqalar. Misollardan mazkur affiks o‘z o‘rnida qo‘llanib to‘g‘ri ifodalovchi birikma terminlar tuzilganligidan dalolat beradi. Shunisi ham borki, bu terminlarning barchasi o‘z definatsiyasiga egadir. Masalan:

*Etti kokilli sirg‘a:* Sirg‘a turlaridan biri, tanasiga kokil osilgan bo‘ladi (FSHKL). *Kokilli sochpopuk:* Sochpopukning eshilgan yo o‘rilgan kokillarining bir turi (FSHKL). Ko‘zonali ish: Tosh, ya‘ni ko‘z o‘rnatiladigan uzuk, sirg‘a (FSHKL) va b.

2. **ma** affiksi ishtirokida tuzilgan birikma terminlar. Hozirgi paytda -ma affiksidan foydalananib, qator

terminologik tizimlarda o‘nlab birikma terminlar hosil qilib kelinmoqda. Chunki affiks «biror narsani bajarishga mo‘ljallangan» tarzdagi asosiy ma’noni ifodolovchi nisbiy sifatlar yasab keladi. Zargalik buyumlarining birikmali nomlarini yashashda ham **-ma** affiksidan unumliroq foydalanganligini o‘ndan ortiq birikma terminning mavjudligi bilan izohlash mumkin. *Sugma uzuk, osma bezak, burama bilaguzuk, chekma qalam o‘rama uzuk* ana shular jumlasidandir. Yana quyidagi misollarga e’tibor beraylik; *Chekma qalam* (qalam nomli metall asboblardan biri) bu bilan bilaguzukka chekma naqsh solinadi, (FSHKL), *burama bilaguzuk* (spiral shaklida buralib yasalgan uzuk turi ), *burama bilaguzuk* ( spiral shaklida yasalgan bilaguzuk turi), *quyma uzuk* (taganakka quyilgan ko‘zxonasi ham birga quyilgan uzuk) va b.

Zargarlik terminologiyasida keltirilganlardan tashqari **-ma** affiksli yana quyidagi birikma terminlar mavjud: *to‘qima zebigardon, o‘rama (xalqali) shokila, o‘yma naqsh, chizma naqsh, bosma naqsh gul, osma shokila, burama usul, burama gajak, qatlama marjon, qoqma naqsh, kesma naqsh, qadama naqsh* va b.

3. **cha** affiksi ishtirokida tuzilgan birikma terminlar. O‘zbek adabiy tilida – **cha** affiksi keng ma’nodagi predmetlarning millati, kelib chiqish joyi, miqdori, ayrim xususiyatlarini ifodalash uchun xizmat qilganligidan, undan qator terminologik tizimlarda ancha unumli foydalaniromoqda. *qirg‘izcha lag‘mon, afg‘oncha rubob, qashqarcha ayvon kabi turli sohalarga oid terminlar ana shular jumlasidandir*.
4. **simon** affiksi ishtirokida tuzilgan birikma terminlar. «O‘xshatish», «o‘xshatilgan» ma’nosini reallashtiruvchi **-simon** affiksi ishtirokida birikma terminlar hosil qilish qator terminologik tizimlarda o‘zining mahsuldarligi bilan ajralib turadi. Masalan, birligina anatomik terminologiyada, Z.Mirahmedovaning guvohlik berishicha, o‘nlab ana shunday birikmalar mavjud (bigizsimon o‘simta, bodomsimon tana, so‘rg‘ichsimon muskul kabilar shular jumlasidandir)<sup>1</sup>.

Zargarlik terminlarini ifodalashda birinchi qismi qo‘shma sifatlardan iborat birikmalar ham mazkur terminologiyada mavjudligini *devornusxa naqsh, bodomnusxa gajak, tomchinusxa shokila, yuraknusxa zebigardon, yaproknusxa tumor, oynusxa naqsh* singarilar tasdiqlaydi.

Xullas, zargarlik terminologiyasida birikma terminlar o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Ularning aksariyat ko‘pchiligi zargarlikka oid tushunchalarini to‘g‘ri ifodalab kelmoqda. Zargarlikka oid birikma terminlar asosan ikki komponentli bo‘lib, ular ichida **sifat + ot** modelida yasalgan birikmalar ustunlik qiladi. Ularning aniqlovchi komponentini yashashda -li, -ma, -siz kabi affikslardan unumli foydalaniilgan.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbek tilining ilmiy-texnikaviy terminlari tarixidan. -Toshkent, 1973.270 bet
2. Doniyorov R.O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari, Toshkent, 1977 yil,76 – bet.
3. Ibrohimov S. Farg‘ona shevalarining kasb – hunar leksikasi. Toshkent,1959 yil,157 -bet
4. SHamsiddinov H. Umumiste’moldagi so‘zlardan leksik – semantik usul bilan yasalgan terminlar va ularni tartibga solish// O‘zbek tili ilmiy texnikaviy terminologiyani tartibga solish prinsiplari, Toshkent. 1991, 161- bet
5. Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent, 2010, 7 –18- bet.

<sup>1</sup> Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Тошкент, 2010, 7 –18- бет.